

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.17/04.06.2021.T.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

NAMAZOV SUNNAT ZOKIROVICH

**YUQORI KULLANGAN ANGREN KONI QO'NG'IR KO'MIRINI
BOYITISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

04.00.14 – Foydali qazilmalarni boyitish

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Navoiy – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) of
technical sciences**

Namazov Sunnat Zokirovich

Yuqori kullangan Angren koni qo'ng'ir ko'mirini boyitish texnologiyasini ishlab
chiqish.....3

Намазов Суннат Зокирович

Разработка технологии обогащения высокозольного бурого угля из
Ангренского разреза.....21

Namazov Sunnat Zokirovich

Development of technology for enriching high-ash brown coal from the Angren
open-pit mine.....39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....42

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.17/04.06.2021.T.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

NAMAZOV SUNNAT ZOKIROVICH

**YUQORI KULLANGAN ANGREN KONI QO'NG'IR KO'MIRINI
BOYITISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

04.00.14 – Foydali qazilmalarni boyitish

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Navoiy – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2021.4.PhD/T2473 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nsumt.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Doniyarov Nodirjon Abdixakimovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muxiddinov Baxodir Faxriddinovich
kimyo fanlari doktori, professor

Xudoyarov Suleyman Rashidovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Navoiy Davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi DSc.17/04.06.2021.T.06.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «10» 08 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shoh ko‘chasi, 76v-uy. Navoiy Davlat konchilik va texnologiyalar universiteti majlislar zali. Tel.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz. www.nsumt.uz).

Dissertatsiya bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (159 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shoh ko‘chasi, 76V-uy, Tel.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «29» 08 kuni tarqatildi.
(2024 yil «29» 08 dagi 15 raqamli reestr bayonnomasi)



K.S. Sanakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

O.U. Fuzaylov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d. (PhD)

A.U. Samadov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hozirgi vaqtda ko‘mir asosiy yoqilg‘i qazilma bo‘lib, dunyodagi energiyaga bo‘lgan talabning katta qismini ta‘minlamoqda. Yuqori kullangan ko‘mirni boyitish ko‘rsatkichlarini yaxshilash va kompleks qayta ishlashni takomillashtirish ko‘mir sanoatining asosiy muammosi hisoblanadi. Shu bilan birga yuqori kullangan ko‘mirdan foydalanganda issiqlik elektr stansiyalaridan chiqayotgan kul yaroqli ekin maydonlarini egallab, landshaftni yaroqsiz holatga keltiradi va mintaqadagi ekologik vaziyatni yomonlashtiradi. Bunga bog‘liq holda atrof-muhit muhofaza qilishga qo‘yilayotgan talablarni inobatga olib, yuqori kullangan ko‘mirni boyitishning ekologik va kamxarajat texnologiyalaridan foydalanishga e‘tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Dunyoda yuqori sifatli ko‘mir zaxiralarining kamayishi sababli yuqori kullangan, past navli ko‘mir qazib olish va qayta ishlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, ko‘mirni boyitish jarayonida yuqori kullangan ko‘mirni qayta ishlashning kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish, tarkibidagi qimmatbaho metallar va komponentlarni ajratish usullarini takomillashtirish, ekologik va iqtisodiy nuqtai nazardan past navli ko‘mirni kombinatsiyalashgan usulda boyitish orqali yuqori samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda ko‘mir sanoati mamlakat iqtisodiyotining rivojlangan muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, issiqlik elektrostansiyalarining kul-shlak chiqindilari va zararli gazlarni atmosferaga chiqarib yuborishni kamaytirish va yangi takomillashtirilgan yuqori kullangan qo‘ng‘ir ko‘mirni boyitish texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha ilg‘or ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni joriy qilib, qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorida¹ “2019 — 2024 yillar davomida “Angren” konidan ko‘mir qazib olish hajmini 8 million tonnaga yetkazish va qazib olinadigan ko‘mir sifatini oshirish” kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda “Angren” koni yuqori kullangan qo‘ng‘ir ko‘mirini qazib olish va boyitishning yangi texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish muammolarini hal etishga qaratilgan tadqiqotlar katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-iyundagi PQ-3054-sonli “2017-2021-yillarda ko‘mir sanoatini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF-4779-sonli “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslardan foydalanish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PF-57-sonli “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarida, shuningdek boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4234-son Qarori. “O‘zbekiston Respublikasining ko‘mir sanoatini yanada kompleks rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 03.07.2019 yil

belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. “Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yuqori kullangan ko‘mirni fizik-kimyoviy boyitish usullaridan foydalanib ko‘mir sifatini oshirish, shuningdek ko‘mir kullaridan qimmatbaho, rangli, nodir va noyob metallarni ajratib olishni rivojlantirish sohasida xorijiy va mahalliy olimlar Avdoxin V.M., Barskiy M.D., Begran N.G., Kizelvalter B.V., Samilin N.A., Shohin V.N., Fomenko T.G., Bruce G. Miller, Golberg G.Yu., Sushanta K. Behera, Mijal V., Gulsoy O.Y., Pauell M. A., Lyon V.S., Sanakulov K.S., Yusupxodjayev A.A., Yusupova T.S., Doniyarov N.A., va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari orqali salmoqli hissa qo‘shganlar.

Adabiy manbalarni tahlil qilish asosida ma‘lum bo‘ldiki, yuqori kullangan qo‘ng‘ir ko‘mirni qayta ishlash bo‘yicha barcha ishlar alohida boyitish usullari yordamida kul miqdorini kamaytirishga qaratilgan. Kombinatsiyalashgan boyitish, ya‘ni yuqori kullangan qo‘ng‘ir ko‘mirning kulini kamaytirish uchun flotatsiya-gravitatsiya usulida boyitishdan foydalangan holda texnologiyani ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha o‘rganilmagan. Flotatsiya-gravitatsiya kombinatsiyalashgan boyitishdan foydalangan holda texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish yanada samarali bo‘lishi va ularni qayta ishlash jarayonida yuqori rentabellikka erishish mumkin. Mazkur dissertatsiya ishi yuqori kullangan qo‘ng‘ir ko‘mirni boyitishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining ilmiy-tadqiqot rejasining 08/2023 – “Mahalliy xomashyodan glinaziyom olish imkoniyatlarini tadqiq qilish va o‘rganish” mavzusidagi xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Angren koni yuqori kullangan qo‘ng‘ir ko‘mirini boyitishning kombinatsiyalashgan (flotatsiya-gravitatsiya) usulidan foydalanib ko‘mirni yonuvchi qismini oshirish uchun boyitishning samarali texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yuqori kullangan qo‘ng‘ir ko‘mirning kimyoviy va mineralogik tarkibini o‘rganish;

yuqori kullangan qo‘ng‘ir ko‘mirni dastlabki va olingan boyitmalarini (deferensial skanerlash kalorimetr DSK) larda termik usulda issiqlik ajralishini aniqlash;

boyitishning gravitatsiya usulida cho‘ktirish mashinasida, boyitish stoli va havo saralagichlarida har xil texnologik rejimlarda yuqori kullangan ko‘mirdan boyitilgan ko‘mir olish jarayonini tadqiq qilish;

yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirni flotatsiya usulida boyitishning reagent rejimi va texnologik parametrlarini tadqiq qilish;

yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirni boyitishning kombinatsiyalashgan (flotatsiya gravitatsiya) texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida «Angren koni» yuqori kullangan qo'ng'ir ko'miri olingan.

Tadqiqotning predmeti yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirni kombinatsiyalashgan usulda boyitish texnologiyasini ishlab chiqish tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini olib borishda zamonaviy kompleks tadqiqot usullari, jumladan rentgen fazalari tadqiqot usullari, dastlabki va olingan boyitmaning issiqlik ajralish xususiyatlarini o'rganish uchun termogravimetrik tahlil usuli, laboratoriya tajribalari, sanoat-sinov tajribalari, elektron mikroskopiya, rentgen strukturaviy tahlil, kimyoviy tahlil usullari va laboratoriya sinovlari natijalarini qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

gravitatsiya usulida boyitishning eng maqbuli cho'ktirish mashinasida ko'mirni yengil mahsulotga ajratish ekanligi asoslangan;

birinchi marta Angren koni yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirini flotatsiya usulida boyitish uchun yangi reagent qo'llanilgan va bunda yonmaydigan qo'shimchalar chiqindiga ajralishi aniqlangan;

yuqori kullangan Angren qo'ng'ir ko'mirini gravitatsiya-flotatsiya usullarida boyitishning texnologik ko'rsatkichlariga yiriklik sinfi, reagent sarfi va jarayon davomiyligining ta'siri aniqlangan;

birinchi marta ko'mirni 88-90% boyitmaga ajratib olish va kul miqdori 10-12% tashkil etadigan mahsulot olish imkonini beradigan boyitishning gravitatsiya-flotatsiya texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirning kimyoviy va mineralogik tarkiblari aniqlangan;

cho'ktirish mashinasida boyitishning optimal parametrlarida amplituda - 15 mm, pulsatsiya chastotasi - $175^{-\text{min}}$ va $Q: S = 1: 5$ nisbatida, 73,4% ko'mirning boyitmaga ajralishi aniqlangan ;

Angren konidagi yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirni boyitishning kombinatsiyalashgan texnologiyasi ishlab chiqilgan, bu esa dastlabki mahsulot tarkibidagi uglerod miqdorini 47% dan boyitma tarkibidagi uglerod miqdori 88-90% gacha oshirishga, shuningdek boyitma tarkibida oltingugurt 1,2% dan 0,2% gacha kamayishi isbotlangan;

birinchi marta Respublikamizda ko'mirni boyitishda import o'rnini bosuvchi mahsulot mahalliy ko'pik hosil qiluvchi flotatsiya reagentidan foydalanib, ko'mir tarkibidagi kul miqdorini 10-12% gacha kamaytirish, olingan ko'mir boyitmasini yongandagi issiqlik ajralishi 4260 kkal/kg oshirish, ko'mir tashishni yiliga 2 055 300 tonnagacha va ko'mir tarkibidagi oltingugurt miqdori yiliga 33466 tonna kamaytirish imkonini beruvchi boyitishning kombinatsiyalashgan texnologiyasi ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi keng miqyosda o'tkazilgan laboratoriya va yarim-sanoat tajribalari ko'mirni ajratib olish darajasini oshirishda ishning asosiy mazmuniga mosligi va miqdor jihatdan o'z tasdig'ini topgani va ishlab chiqilgan texnologiyada flotatsiya-gravitatsiya jarayonlarining rejimlarini qo'llash natijalari, kengaytirilgan tajriba sinovlarining ijobiy natijalari boyitilgan ko'mirda kul miqdori kamayishi va uning yongandagi issiqlik ajralishining oshirilganligi muhim ijobiy natijalar bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Angren koni yuqori kullangan qo'ngir ko'miridan ko'mirni boyitmaga ajralishiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlangan, yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirni boyitishning yangi ekologik va iqtisodiy samarali texnologik sxemasini qo'llash maqsadga muvofiqligi nazariy asoslangan va qo'ng'ir ko'mirni flotatsiya-gravitatsiya usulida boyitish rejimi va parametrlarini aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Angren koni yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirni boyitish texnologiyasi ishlab chiqish, shu jumladan qo'ng'ir ko'mirni boyitmaga ajralishini 88-90% ga oshirish, ko'mir tarkibidagi oltingugurtni 1,2% dan 0,2% gacha kamaytirish, boyitilgan ko'mir tarkibidagi kul miqdorini 10-12% gacha kamaytirish va boyitilgan ko'mirdan 4260 kkal/kg issiqlik energiyasi olishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Angren koni yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirni boyitish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Angren koni yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirini kombinatsiyalashgan (flotatsiya-gravitatsiya) usulda boyitishning yangi texnologiyasi "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatida amaliyotga joriy etilgan («Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJning 2023 yil 29 noyabrdagi 23/01-01-07/638 -sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan texnologiyani qo'llash kul miqdorini 50-53% dan 10-12% gacha kamaytirish imkonini bergan;

Yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirni asosiy flotatsiya, nazorat flotatsiyasi va I-tozalash flotatsiyasi, cho'ktirish mashinasida boyitishdan iborat bo'lgan texnologik sxemasi "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatida amaliyotga joriy etilgan («Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJning 2023 yil 29 noyabrdagi 23/01-01-07/638-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, qo'ng'ir ko'mirni yonganda issiqlik ajralishini 3 marta oshirish va ko'mirni boyitmaga ajralishini 88-90 % ga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiya qilish. Mazkur tadqiqotning natijalari 4 ta respublika va 1 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi bo‘yicha tavsiyalar, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Ko‘mir sanoatida ko‘mirni boyitishning istiqbollari va hozirgi holati**» nomli birinchi bobida O‘zbekiston ko‘mir sanoatining xomashyo bazasi va istiqbollari tahlil qilinib, jahon amaliyotida yuqori kullangan ko‘mirni boyitish va qayta ishlashning zamonaviy holati va rivojlanish darajasi o‘rganildi. Adabiy manbalarni o‘rganishda tadqiqotlar va amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish natijasida ma‘lum bo‘ldiki, past navli toshko‘mir va qo‘ng‘ir ko‘mirni boyitishning nazariy tahlili va past navli toshko‘mirni va qo‘ng‘ir ko‘mirni boyitish usullarining yangi texnologiyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Dissertatsiya ishining «**Qo‘ng‘ir ko‘mir tarkibli mahsulotlarni tadqiq qilish obekti va usullari**» nomli ikkinchi bobi tadqiqot obyekti – Angren ko‘mir koni “2 BR BOMCIII” markali qo‘ng‘ir ko‘mirini moddiy takibini o‘rganishga shuningdek, tadqiqotni olib borish usullari va olib borilgan tajriba ishlarini tavsiflashga bag‘ishlangan.

Kimyoviy tahlil namunaning tog‘ jinsi qismini silikat parchalash usulida aniqlandi. Kimyoviy tahlil shuni ko‘rsatadiki dastlabki ko‘mir namunasida ko‘mirdan tashqari asosan qora va yengil metallar, shuningdek noruda foydali qazilmalar qo‘shimchalaridan iborat. Dastlabki ko‘mir namunasida quydagi kimyoviy elementlar aniqlandi: alyuminiy 6,7%, temir 1,2%, titan 0,2%, natriy 0,2%, magniy 0,3%, kremniy 10,8%, kalsiy 1,2%, oltingugurt 1,2%, uglerod 54,5% va boshqalar (1-jadval).

1-jadval

Dastlabki qo‘ng‘ir ko‘mirning kimyoviy tarkibi, %

Elementlar miqdori, %										
Na	Mg	Al	Si	S	K	Ca	Ti	Fe	C _{umum}	A ^d
0,2	0,34	6,7	10,8	1,2	0,8	1,2	0,2	1,2	54,5	45,5

Dastlabki namunani rentgen fazali difraktometrik usulda mineralogik tarkibini Empyrean difraktometr (Panalytical, Niderlandiya) qurilmasida o‘rganildi.

Difraksiya ma'lumotlari 5 dan 90 ± 2 teta gacha bo‘lgan burchaklar oralig‘ida aniqlangan. 6 ta namunaning kukunli difraktogrammalari Ritveld usuli yordamida aniqlandi.

Minerallar miqdoriga ko'ra rentgenofazali tahlil natijalari

Mineral	Kvars	Pirit	Kaolinit	Muskovit	Nakrit	Ko'mir	Dolomit	kalsit	Rutil	Albit
Miqdori, %	13	1,1	22	10	6	43	0,5	0,6	0,5	3,3


Tahlil natijalarida quydagi asosiy minerallar aniqlandi: kvars (13%), kaolinit (22%) va ko'mir (43%). pirit (FeS_2) muskovit ($\text{KAl}_2(\text{AlSi}_3\text{O}_{10})(\text{F},\text{OH})_2$), nakrit ($\text{Al}_2\text{Si}_2\text{O}_5(\text{OH})_4$), dolomit ($\text{CaCO}_3 \cdot \text{MgCO}_3$), kalsit (CaCO_3), rutil (TiO_2), albit ($\text{Na}[\text{AlSi}_3\text{O}_8]$).

Shuningdek, yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirni dastlabki namunasini issiqlik energiyasi ajralishini aniqlash bo'yicha laboratoriya sinovlari GOST ISO 1171-2012 va GOST 147-2013, GOST 27314-91 davlatlararo standartlariga muvofiq amalga oshirildi. Laboratoriya sinovini o'tkazishda turli laboratoriya uskunalari ishlatilgan: SLN 180 SMART markali quritish shkafi, QUENTIX224-10RU markali tarozi, termometr, XRY-1A markali kalorometr. O'tkazilgan laboratoriya sinovi natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

Issiqlik ajralishi tajriba sinov natijalari

№	Material	Kul miqdori A^d , %.	Yoqilg'ining ish holatida umumiy namlikning massa ulushi, W^t ,	Yoqilg'ining ish holatidagi eng past yonish issiqligi Q^f kkal/kg.
1	Qo'ng'ir ko'mir	45,5	4,45	1650

«Angren koni yuqori kullangan ko'mirini boyitish usullarini tadqiq qilish» nomli dissertasiyaning uchinchi bobida Angren koni yuqori kullangan ko'mirini boyitish usullari va taklif etilayotgan jarayonlarning texnologik rejimlarini tadqiqot natijalari keltirilgan.



1-rasm. Maydalangan yuqori kullangan ko'mir namunasini kullanganlik taqsimoti yirik sinflarning chiqishiga bog'liqligi.


Shuningdek, ko'mirning granulometrik tarkibini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar Retsch AS 450 control markali analitik g'alvirlash mashinasi, yordamida o'tkazildi.

Shuningdek, "EVO MA 10" elektron skanerlash mikroskopi yordamida dastlabki ko'mir namunasining kimyoviy tarkibini aniqlandi. 4- jadval va 2-rasmda kimyoviy tahlil natijalari va spektrogrammasi keltirilgan.

4-jadval


Kimyoviy tahlil natijalari

Dastlabki namuna	Kimyoviy tarkibi, %										
	Na	Mg	Al	Si	S	K	Ca	Ti	Fe	C	O
Qo'ng'ir ko'mir	0,2	0,34	6,7	10,8	1,2	0,8	1,2	0,2	1,2	33,8	43,6




2-rasm. Dastlabki namunaning kimyoviy tahlil spektrogrammasi

Yuqori kullangan ko'mirni gravitatsiya usulida boyitish tajriba sinovlari MOD-0,02 SKL tajriba cho'ktirish mashinasida o'tkazildi. Tajribalarni sinovlarini o'tkazish uchun yuqori kullangan ko'mirning o'rtachalashtirilgan namunasi ishlatilgan. Yuqori kullangan ko'mirni cho'ktirish mashinasida boyitishning texnologik sxemasi 3 - rasmda keltirilgan.



3 – rasm. Yuqori kullangan ko'mirni cho'ktirish mashinasida boyitishning texnologik sxemasi.


O'rtachalashtirilgan ko'mir namunasi 3 kg dan 8 sinflarga ajratilgan: +4 mm; -4+2 mm; -2+1 mm; -1+0,5 mm; -0,5+0,250 mm; -0,250+0,125 mm; -0,125+0,063 mm; -0,063 mm olindi.



4-rasm. Boyitishning texnologik parametrlari o'zgarishining 125^{-min} tebranish chastotasida dastlabki ko'mirning granulometrik tarkibiga bog'liqligi

Tajriba sinovlari quyidagi parametrlarda o'tkazildi: tebranish chastotasi 125, 150, 175 marta minut, amplituda 15 mm, Q:S =1:5.


4-rasmdan ko'rinib turibdiki, cho'ktirish mashinalarida ko'mirni boyitishning eng yaxshi natijalari -4,0 +2,0 mm yiriklik sinfida erishilgan bo'lib ko'mirning yengil mahsulotga ajralishi 74,4% ni, mahsulotning yonuvchi qismi 65,0% ni tashkil etdi.



5-rasm. Boyitishning texnologik parametrlari o'zgarishining 150^{-min} tebranish chastotasida dastlabki ko'mirning granulometrik tarkibiga bog'liqligi.

5-rasmdan ko'rinib turibdiki, cho'ktirish mashinalarida ko'mirni boyitishning eng yaxshi natijalari -4,0 +2,0 mm yiriklik sinfida erishilgan bo'lib ko'mirning yengil mahsulotga ajralishi 77,3% ni, mahsulotning yonuvchi qismi 65,9% ni tashkil etdi.


6-rasmdan ko‘rinib turibdiki, cho‘ktirish mashinalarida ko‘mirni boyitishning eng yaxshi natijalari $-4,0 +1,0$ mm yiriklik sinfida erishilgan bo‘lib ko‘mirning yengil mahsulotga ajralishi 73,4% ni, mahsulotning yonuvchi qismi 68,0% ni tashkil etdi.



6-rasm. Boyitishning texnologik parametrlari o‘zgarishining 175^{-min} tebranish chastotasida dastlabki ko‘mirning granulometrik tarkibiga bog‘liqligi.

Shuningdek yuqori kullangan qo‘ng‘ir ko‘mirni boyitish boyicha havo saralagichlarda tadqiqotlar o‘tkazildi. Tajriba sinovlarini yuqori kullangan qo‘ng‘ir ko‘mirning o‘rtachalashgan namunasida o‘tkazildi.

Tajriba sinovlarini o‘tkazishda yuqori kullangan ko‘mir dastlabki namunasi dastlab maydalanib, so‘ngra halqa-konus usulida aralashtirilib 5 kg dan o‘rtachalashtirib olindi. Dastlabki o‘rtachalashtirilgan ko‘mir namunasidagi kul miqdori 53 % tashkil etadi. Havo saralagichlarida yuqori kullangan ko‘mirni boyitishda elektr motorining chastota konvertori yordamida havo kanalida turli xil (15 m/s; 20 m/s; 25 m/s; 30 m/s; 35 m/s) havo tezliklarida dastlabki tajriba sinovlari o‘kazildi. 7-rasmda havo saralagichgida boyitishning dastlabki tajriba natijalari ko‘rsatilgan.




7-rasm. Ko‘mirning boyitmaga ajralishini o‘zgarishining havo oqimi tezligiga bog‘liqligi

7-rasmdan ko‘rinib turibdiki, havo oqimining turli tezligida havo saralagichlarida ajratish bo‘yicha dastlabki tajribaning eng yaxshi natijasi - havo oqimi tezligi 30 m/s bo‘lganida, ko‘mirni boyitmaga chiqishi 46,0%, boyitmadagi kul miqdori 33,1%, ko‘mir boyitmaga ajralishi 64,4 %, boyitmaning yonuvchi qismi

66,9% ni tashkil etgan. Ko‘mirni havo saralagichda ajratish usulida dastlabki boyitish natijalaridan kelib chiqib, turli yiriklikdagi sinflarda tadqiqotlar o‘tkazishga qaror qilingan.


Maydalangan material g‘alvirlarda sinflarga ajratilib quydagi 4 sinf yirikligidagi mahsulot olindi: +4 mm; -4+2 mm; -2+1 mm; -1+0,5 mm. -0,5 mm dan kichik sinf havo saralagichida boyitilmadi. 30 m/s havo oqimi tezligida tajriba sinovlari o‘tkazildi. Ko‘mirni havo saralagichida o‘tkazilgan tajriba sinov natijalari 8-rasmda keltirilgan.



8-rasm. Havo saralagichini havo oqimi tezligi 30 m/s da ko‘mirni boyitmaga ajralish o‘zgarishining bog‘liqligi.

namunasidan 7 sinf yirikligidagi mahsulot olingan: -4+2 mm; -2+1 mm; -1+0,5 mm; -0,5+0,250 mm; -0,250+0,125 mm; -0,125+0,063 mm; -0,063 mm. Flotatsiya usulida boyitishda quyidagi 3 xil reagent soapstok (yog‘-moy zavodining chiqindisi), olien kislotasi, kerosinli transformator moylari yig‘uvchi va ko‘pik hosil qiluvchi reagentlar sifatida turli miqdorlarda sinovdan o‘tkazilgan.

9, 10, 11-rasmlarda har xil yiriklik sinfdagi namunalarning soapstok, olien kislotasi, T-80 reagentlari bilan flotatsiya usulida boyitishning natijalari ko‘rsatilgan.



8-rasmdan ko‘rinib turibdiki, havo oqimining tezligi 30 m/s bo‘lganida eng yaxshi natijani -4+2 mm yiriklikda boyitmadagi kul miqdori 34,2%, ko‘mir boyitmaga ajralishi 73,9%, boyitmaning yonuvchi qismi 64,8% ni tashkil etgan.

Yuqori kullangan ko‘mirni flotatsiya usulida boyitish bo‘yicha tajriba sinovlari kamera sig‘imi 3 litr bo‘lgan ESSE FTM 101 laboratoriya flotatsiya mashinasida o‘tkazilgan.


Tajriba sinovlari yuqori kullangan ko‘mirning o‘rtalashtirilgan maydalangan

9-rasm. Soapstok reagentidan foydalanganda boyitishning texnologik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi ko‘mirning yiriklik sinfiga bog‘liqligi.

9-rasmdan ko‘rinib turibdiki, (foydali komponent ko‘pikli mahsulotga emas kamerali mahsulotga ajratildi) teskari flotatsiya jarayonida soapstok


reagentidan foydalangan holda quyidagi eng yaxshi natijalarga erishilgan: -2 +1 mm yiriklikdagi sinfdan II-tozalash flotatsiyada kamerali mahsulotning chiqishi 55,5%,

mahsulotdagi kul miqdori 20,7%, yonuvchi qismining ajralishi 89,7% ni tashkil qildi.



10-rasm. Olien kislotasidan foydalanganda boyitishning texnologik ko'rsatkichlarining o'zgarishi ko'mirning yiriklik sinfiga bog'liqligi.

10-rasmdan ko'rinib turibdiki, olien kislotasidan foydalangan holda quydagi eng yaxshi natijalarga erishildi: -1 +0,5 mm yiriklikdagi sinfdagi II-tozalash flotatsiyada kamerali mahsulotning chiqishi 57,8%, mahsulotdagi kul miqdori 25,1%, yonuvchi qismini ajralishi 90,1% ni tashkil qildi.



11-rasm. T-80 reagentidan foydalanganda boyitishning texnologik ko'rsatkichlarining o'zgarishi ko'mirning yiriklik sinfiga bog'liqligi.


11-rasmdan ko'rinib turibdiki, T-80 reagentidan foydalangan holda quydagi eng yaxshi natijalarga erishilgan: -0,125+0,063 mm yiriklikdagi sinfdagi II-tozalash flotatsiyada kamerali mahsulotning chiqishi 62,5%, mahsulotdagi kul miqdori 30,1%, yonuvchi qismini ajralishi 93,01% ni tashkil qilgan.

Bundan tashqari boyitishning flotatsiya-gravitatsiya (kombinatsiyalashgan) usulida yuqori kullangan ko'mirni laboratoriya flotatsiya mashinasi va SKL 2 boyitish stolida tajriba sinovlari o'tkazilgan. Ko'mirni teskari flotatsiya jarayonida boyitishda eng maqbul ko'pik hosil qiluvchi reagent sifatida soapstok tanlangan va unga qo'shimcha ko'mirni tazyiqlash uchun «R2» reagentidan ham foydalanilgan. Flotatsiya-gravitatsiya usulida boyitish sxemasi 3 xil rejimda o'tkazilgan va boyitish parametrlari 5-jadvalda keltirilgan.


Flotatsiya-gravitatsiya usulida boyitish sxemasining 3 xil rejim va parametrlari

Parametrlar	Reagentlar sarfi, g/t.				Boyitish stolining parametrlari		
	Asosiy flotatsiya		Tozlash flotatsiyasi		Dekaning qiyalik burchagi, grad.	Dekaning tebranishlar soni, min ⁻¹	Dekaning amplitudasi, mm
	Soapstok	R2	Soapstok	R2			
1	600	8	300	5	3	300	20
2	700	10	400	7	5	285	15
3	900	12	500	9	6	260	10


Barcha tajribalarda flotatsiya mashinasini impellerning aylanish tezligi 500 marta/minutda, havo sarfi 10 l/min., asosiy flotatsiyaning vaqti esa 20, 15, 10 minutlarda, tozalash flotatsiyaning vaqti 15, 10, 5 minutlarda o'kazildi. Flotatsiya-gravitatsiya usulida o'tkazilgan tadqiqot natijalari 12, 13, 14-rasmlarda ko'rsatilgan.



12-rasm. 1-tajribalar uchun yakuniy mahsulot ajralish o'zgarishining yiriklik sinfiga bog'liqligi



13-rasm. 2-tajribalar uchun yakuniy mahsulot ajralish o'zgarishining yiriklik sinfiga bog'liqligi




14-rasm. 3-tajribalar uchun yakuniy mahsulot ajralish o‘zgarishining yiriklik sinfiga bog‘liqligi.

12-rasmdan ko‘rinib turibdiki boyitishning flotatsiya-gravitatsiya usulida, ko‘pik hosil qiluvchi reagentning sarfi 900 g/t va tazyiqlovchi reagentning sarfi 13 g/t quydagi eng yaxshi natijalarni berdi: -2+1 mm yiriklikdagi sinfdagi boyitmadagi mahsulotning yonuvchi qismining ajralishi 87,3%, mahsulotning chiqishi 49,8%, mahsulotdagi kul miqdori 14,1% ni tashkil qildi;

13-rasmdan ko‘rinib turibdiki boyitishning flotatsiya-gravitatsiya usulida, ko‘pik hosil qiluvchi reagentning sarfi 1100 g/t va tazyiqlovchi reagentning sarfi 17 g/t quydagi eng yaxshi natijalarni berdi: -1+0,5 mm yiriklikdagi sinfdagi boyitmadagi mahsulotning yonuvchi qismining ajralishi 86,2%, mahsulotning chiqishi 49,0%, mahsulotdagi kul miqdori 14,1% ni tashkil qildi;

14-rasmdan ko‘rinib turibdiki boyitishning flotatsiya-gravitatsiya usulida, ko‘pik hosil qiluvchi reagentning sarfi 1400 g/t va tazyiqlovchi reagentning sarfi 21 g/t quydagi eng yaxshi natijalarni berdi: -2+1 mm yiriklikdagi sinfdagi boyitmadagi mahsulotning yonuvchi qismining ajralishi 92,9%, mahsulotning chiqishi 50,5%, mahsulotdagi kul miqdori 10,0% ni tashkil qildi.

Shunindek 1-sonli Hidrometallurgiya zavodining tajriba sexida Angren qo‘ng‘ir ko‘mirini gravitatsiya sxemasi asosida boyitish tajriba sinovlari o‘tkazildi.



15-rasm. Angren qo‘ng‘ir ko‘mirini boyitishning texnologik sxemasi.

Angren qo'ng'ir ko'mirini boyitishning ko'rsatkichlari

No	Mahsulotlarning nomlanishi	Mahsuloning chiqishi, γ. %.	Ko'mirning miqdori, β.	Ko'mirning ajralishi ε, %.
1	2	3	4	5
1	Dastlabki mahsulot	100,0	41,5	100
Yanchish				
Kirishi				
1	Dastlabki mahsulot	100,0	41,5	100
Chiqishi				
1	2	3	4	5
2	Yanchilgan mahsulot	100,0	41,5	100
Cho'ktirish mashinasida boyitish MOD-1M				
Kirishi				
3	Yanchilgan mahsulot	100,0	41,5	100
Chiqishi				
4	Chiqindi	79,7	21,0	60,14
5	Boyitma	20,3	79,0	38,6
Konsentratsion stolda boyitish CKO 2				
Kirishi				
4	MOD-1M chiqindisi	79,7	21,0	60,14
Chiqishi				
6	Chiqindi	60,0	13,9	20,0
7	Boyitma	19,7	87,1	41,4
Umumiy chiqindining chiqishi				
6	Chiqindilar	60,0	13,9	20,0
Umumiy boyitmaning chiqishi				
9	Boyitma	40,0	83,0	80,0


Asosiy minerallar tarkibining rentgen difraktometriya natijalari

Mineral va uning formulasi	Asosiy minerallar tarkibi, %.				
	Dastlabki ko'mir	Asosiy flotatsiya chiqindisi.	I-tozalash Flotatsiya chiqindisi.	CKM chiqindisi	CKM boyitmasi
Kvars (SiO ₂)	13.0	25.0	24.1	74.9	0.5
Pirit (FeS ₂)	1.1	0.6	0.4	3.7	0.9
Kaolinit	22.0	46.0	46.2	7.3	2.1
Ko'mir	43.0	5.8	1.1	3.1	90.0
Muskovit (KAl ₂ (AlSi ₃ O ₁₀)(F,OH) ₂)	10.0	12.2	14.6	4.0	-
Nakrit (Al ₂ Si ₂ O ₅ (OH) ₄)	6.0	9.2	7.0	-	3.5
Dalomit (CaCO ₃ ·MgCO ₃)	0.5	-	-	-	3.0
Kalsiy (CaCO ₃)	0.6	-	-	2.6	-
Rutil (TiO ₂)	0.5	1.2	-	0.3	-
Albit (Na[AlSi ₃ O ₈]).	3.3	-	6.6	3.9	-
Jami	100.0	100.0	100.0	99.9	100.0

Shuningdek yuqori kullangan ko‘mirni dastlabki va boyitish mahsulotlarining mineralogik tarkibi (ruda va noruda minerallari) rentgen difraktometriya yordamida o‘rganildi. Asosiy minerallar tarkibi rentgen difraktometriya natijalari 7-jadvalda ko‘rsatilgan.

Dissertatsiya ishining «**Angren koni yuqori kullangan ko‘mirini boyitishning tavsiya etilgan texnologik sxemasini ishlab chiqish va asoslash**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida Angren koni yuqori kullangan ko‘mirni boyitishning texnologik sxemasi ishlab chiqilgan va kengaytirilgan tajriba sinovlar natijalari taqdim etildi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida yuqori kullangan ko‘mirni boyitishning kombinatsiyalashgan texnologik sxemasi ishlab chiqildi va tavsiya etildi. Ishlab chiqilgan texnologik sxemada boyitmaga ko‘mirning ajralishi 90% ni tashqil qiladi shuningdek, boyitma yongandagi issiqlikning ajralishi 4260 kkal/kg. ga oshirildi. Olingan boyitma ISO 2950 xalqaro standartiga mos keladi.



16-rasm Angren koni yuqori kullangan qo‘ng‘ir ko‘mirini boyitishning sifat-miqdor sxemasi

Angren konidan yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirni boyitish bo'yicha ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan texnologik sxemaning iqtisodiy samaradorligi yiliga 2 415 450 \$ tashkil etadi.

XULOSA

«Yuqori kullangan angren koni qo'ng'ir ko'mirini boyitish texnologiyasini yaratish» mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. O'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida dastlabki qo'ng'ir ko'mirning kimyoviy va mineralogik tarkibi aniqlandi, namunada ko'mirdan tashqari, tarkibida fosforit, kaolin, kalsiy, kvars, albit, dolomit, muskovit va boshqalar minerallar borligini ko'rsatdi.

2. O'tkazilgan termogravimetrik tahlilda, differensial termogravimetrik kalorimetr uskunasi dastlabki yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirni namunasini issiqlik energiyasi ajralishi 1650 kkal/kg tengligi aniqlandi.

3. Gravitatsiya usulida boyitishni o'rganishda eng samarali ko'rsatkichlar pulsatsiya chastotasi 175 ^{min}, -4,0 +2,0 mm sinfda yengil mahsulotning chiqishi 54,7 % mahsulotdagi kul miqdori 32,0 % tashkil etdi. mahsulotning yonuvchi qismi 68,0%, ko'mirni boyitmaga ajralishi 73,4% ni tashkil etdi.

4. Qo'ng'ir ko'mirning flotatsiya usulida boyitish o'rganilganda ko'pik hosil qiluvchi va yig'uvchi flotatsiya reagentlari sifatida yangi import o'rnini bosuvchi mahalliy reagent soapstokdan foydalanildi. Shuningdek yangi reagent soapstokda kalsiy, fosfor va alyuminosilikatlarning flotatsiyalanish xususiyatlari o'rganildi.

5. Kombinatsiyalashgan (flotatsiya-gravitatsiya) usulda boyitish yordamida yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirni boyitish texnologiyasi ishlab chiqildi.

6. Qo'ng'ir ko'mirni flotatsiya-gravitatsiya usulida boyituvchanligini o'rganishda -2 +1 mm yiriklikdagi sinfni boyitish sxemasi eng samarali natijalarga quyidagi parametrlarda erishildi: ko'pik hosil qiluvchi reagentning umumiy sarfi 1400 g/t, tazyiqlovchi reagentning sarfi 21 g/t, boyitmaning chiqishi 50,5%, ko'mirni boyitmaga ajralishi 92,9 %, boyitma tarkibidagi kul miqdori 10,0% tashkil etdi.

7. O'tkazilgan tadqiqotlar asosiga yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirni boyitishning kombinatsiyalashgan texnologik sxemasi ishlab chiqildi va tavsiya etilgan bo'lib, unda ko'mirni boyitmaga ajralishi 90 % ga va ko'mirni yonganda issiqlik energiyasi ajralishi 4260 kkal/kg oshirildi. Olingan ko'mir boyitmasi ISO 2950 xalqaro standartiga mos keladi.

8. Angren koni yuqori kullangan qo'ng'ir ko'mirni boyitishning ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan texnologik sxemaning iqtisodiy samaradorligi yiliga 2 415 450 \$ tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.17/04.06.2021.Т.06.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАВОЙСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ГОРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАВОЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ГОРНО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

НАМАЗОВ СУННАТ ЗОКИРОВИЧ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ОБОГАЩЕНИЯ ВЫСОКОЗОЛЬНОГО
БУРОГО УГЛЯ ИЗ АНГРЕНСКОГО РАЗРЕЗА**

04.00.14 – Обогащение полезных ископаемых

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Навоий - 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером № В2021.4. PhD/T2473.

Диссертационная работа выполнена в Навоийском государственном горно-технологическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.nsumt.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Донияров Нодиржон Абдихакимович доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Мухиддинов Баходир Фахриддинович доктор химических наук, профессор Худояров Сулейман Рашидович кандидат технических наук, доцент
Ведущая организация:	Ташкентский государственный технический университет имени И. Каримова

Защита диссертации состоится «10» 08. 2024 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного Совета DSc.17/04.06.2021.T.06.01. (Адрес: 210100, г. Навои, ул. Галаба шох, 76в. Зал заседаний Навоийского государственного горно-технологического университета. Тел.: (79) 223-23-32; факс: (79) 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz. www.nsmut.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Навоийского государственного горно-технологического университета (зарегистрирован за № 159). (Адрес: 210100, г. Навои, ул. Галаба шох, 76в, Тел.: (79) 223-23-32; факс: (79) 223-49-66).

Автореферат диссертации разослан «29» 08. 2024 года.
(реестр протокола рассылки №15 от «29» 08. 2024 года).



К.С.Санакулов
Председателя Научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

О.У.Фузайлов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.т.н. (PhD)

А.У.Самадов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире настоящее время уголь являясь основным ископаемым топливом, обеспечивает значительную часть мирового спроса на энергию. Улучшение показателей обогащения высокозольного угля и усовершенствование комплексной переработки угля актуальной проблемой угольной промышленности. Тем самым при использовании высокозольного угля, выделяющаяся зола из тепловой электростанции, захватывает посевную площадь земли, приводит ландшафт в непригодное положение и ухудшает экологическое состояние природы. В связи с этим, учитывая требования охраны природной среды, при использовании высокозольного угля большое значение имеет уделять внимание на чисто экологическую и экономичную технологию обогащения.

Во всем мире, в связи с истощением запасов высококачественного угля проводятся научные исследования связанных с добычей и переработкой высокозольного, низкосортного угля. В связи с этим, особое внимание уделяется разработке комплексных технологий переработки высокозольного угля в процессе его обогащения, совершенствованию методов извлечения из его состава ценных металлов и компонентов, разработке и внедрению с экологической и экономической точки зрения высокоэффективных технологий обогащения низкосортного угля с применением комбинированных методов обогащения.

В Республике Узбекистан угольная промышленность является одной из важных отраслей развития экономики страны, которая немыслима без разработки и внедрения новых усовершенствованных технологий обогащения высокозольного бурого угля и сокращения выбросов в атмосферу вредных газов, снижения золошлаковых отходов в теплоэлектростанциях. При этом разрабатываются и внедряются научно основанные передовые технологии, достигнуты ряд научно-практических результатов.

В Постановление Президента Республики Узбекистан¹ определены важные задачи по «добыче угля в первую очередь на период 2019 — 2024 годы, в объемов на разрезе «Ангренский» до 8 млн. тонн а также повышения качества добываемого угля»¹. В связи с этим исследование для решения задач по совершенствованию и разработке новых технологий по добыче и обогащению высокозольного бурого угля из разреза «Ангренский» имеет большое научное и практическое значение.

